

“ICHAN QAL’A” DAVLAT MUZEY-QO’RIQXONASIDAGI AMALIY SAN’AT ASARLARINI MUZEYLAŞTIRISH MASALALARI



Gulchexra Ozodovna Sultanova
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi

Email: sultonovagulchexra5@gmail.com.

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-01-15>

Annotatsiya: Ushbu maqolada amaliy san’at asarlarini muzeylashtirish masalalari yoritilgan bo‘lib, unda muzeylashtirish jarayonlari o‘rganilgan. Muzeyga san’at asarlarini yig‘ish, hujjatlashtirish, saqlash va ta‘mirlash, namoyish qilish masalalari haqida ma‘lumotlar yoritilgan. “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasining shakllanishi va uning fondidagi amaliy san’at asarlari, ekspozitsiyalari borasida fikr yuritilgan. Muzeyda amaliy san’at asarlarini muzeylashtirishi, namoyishi bo‘yicha olib borilayotgan ishlar hamda ulardagi yutuq va kamchiliklarga to‘xtalib o‘tilgan. “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasidagi zamonaviy ekspozitsiyalar haqidagi ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, muzeylashtirish, amaliy san’at, “Ichan qal’a”, muzey-qo‘riqxonona, saqlash, konservatsiya, ta‘mirlash, ekspozitsiya, zamonaviy texnologiyalar.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы музеефикации произведений прикладного искусства и изучаются процессы музееведения. Музей предоставляет информацию о коллекции, документации, сохранении, реставрация и экспозиции произведений искусства. Обсуждались вопросы формирования Государственного музея-заповедника «Ичан-кала», а также произведения прикладного искусства и экспозиции в его коллекции. Обсуждалась проводимая в музее работа по хранению и экспонированию произведений прикладного искусства, их достижения и недостатки. Представлена информация о современных экспозициях Государственного музея-заповедника «Ичан-кала».

Ключевые слова: культурное наследие, музеефикация, прикладное искусство, «Ичан-кала», музей-заповедник, хранение, консервация, реставрация, экспозиция, современные технологии.

Abstract: The article considers the issues of museification of works of applied art and studies the processes of museology. The museum provides information about the collection, documentation, conservation, restoration and exhibition of works of art. The issues of the formation of the State Museum-Reserve "Ichan-Kala", as well as works of applied art and exhibitions in its collection were discussed. The work carried out in the museum on the storage and exhibition of works of applied art, their achievements and shortcomings were discussed. Information about the modern exhibitions of the State Museum-Reserve "Ichan-Kala" is presented.

Keywords: cultural heritage, museification, applied art, "Ichan-Kala", museum-reserve, storage, conservation, restoration, exhibition, modern technologies.

Hozirgi kunda muzey turizmini rivojlantirish, muzey ekspozitsiyalarini takomillashtirish, ilmiy asosda tashkil etish uchun rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va amaliyotga tadbiiq etish yetakchi masalalardan biriga aylandi. Respublikada so‘nggi yillarda xalqning tarixiy, badiiy va madaniy merosini saqlash, kelajak avlodga yetkazish, yosh avlodni umuminsoniy hamda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Zero, “Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir” .

“Muzeylashtirish” tushunchasini birinchi bo‘lib F. I. Shmit o‘z asarlarida qo‘llaydi, biroq 1920-yillargacha boshqa terminlar, masalan, “muzey holatiga keltirish” tushunchalaridan keng foydalanildi. “Muzeylashtirish” tushunchasi tarixiy-madaniy meroslarni ta‘mirlash va muzey-qo‘riqxonalarni tashkillashtirish natijasida rivojlandi. Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlar amaliyotida yodrorliklarni muzeylashtirish va ushbu ob‘yektlardan samarali foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi paytga kelib, “ko‘chuvchan” va “ko‘chmas ob‘yektlar” orasidagi chegara yo‘qolib bormoqda. Me‘moriy yodgorliklar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilmoqda, ulardan ochiq osmon ostidagi muzeylarda kolleksiyalar yaratilmoqda hamda sistematik yoki tematik ekspozitsiyalar qo‘yilmoqda. Muzeylashtirish – yodgorlikni yaxshi saqlab qolishi va undan to‘g‘ri foydalanishning eng rivojlangan yo‘li bo‘lib qoldi.

Amaliy san‘at asarlarini muzeylashtirish jarayoni asarlarni saqlash, tadqiq qilish, tasniflash va keng ommaga namoyish qilish maqsadida maxsus muassasalar – muzeylarda to‘plashni o‘z ichiga oladi. Mazkur jarayon bir necha bosqichlardan iborat:

1. Tanlab olish va yig‘ish: Muzeylar muayyan me‘yorlarga asoslanib, san‘at asarlarini yig‘adi. Asarlar tarixiy, madaniy yoki badiiy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak.

2. Tasniflash va hujjatlashtirish: Har bir asar maxsus qoidalar asosida hujjatlashtiriladi. Ushbu jarayonda uning kelib chiqishi, yaratilgan vaqti, ishlatilgan materiallari, muallifi va boshqa ma‘lumotlar yozib olinadi.

3. Saqlash va ta‘mirlash: Asarlarning uzoq muddat saqlanishi uchun alohida sharoitlar yaratiladi. Zarur bo‘lganda, ta‘mirlash ishlari amalga oshiriladi.

4. Namoyish qilish: Asarlar keng ommaga ko‘rgazmalar orqali taqdim etiladi. Mazkur ko‘rgazmalar mavzuli bo‘lishi va san‘atning muhim jihatlarini yoritishga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin.

Ushbu jarayonlar amaliy san‘atning meros sifatida saqlanishi va keyingi avlodlarga yetkazilishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Muzeylashtirish masalalari muzeyga keltirilgan predmetlarni o‘rganishdan boshlanadi. Bizga ma‘lumki, muzey to‘plamiga kiritilgan predmet, olib kelingan muhitdan butkul uzilib, o‘zining avvalgi funksional ahamiyatini yo‘qotadi. Muzeyda ushbu predmetning funksional ahamiyati emas, uning jamiyatdagi madaniy-tarixiy yodgorlik sifatidagi ahamiyati asosiy o‘rinni egallaydi. Muzey to‘plamida ushbu predmet aniq dalilning hujjati, guvohi, belgisi, timsoliga aylanadi. Predmetni o‘rganish jarayonida mutaxassislar uni o‘z muhiti bilan bog‘lab qayta ta‘mirlaydilar, unga xos belgi va xarakteristikani aniqlaydilar; fond kolleksiyalari va ekspozitsiyada u o‘ziga o‘xshash yoki faqli predmetlar bilan bog‘liq bo‘lgan yangi muhitga tushadi.

Shu bilan birga, u ma‘lum bir tarixiy kontekstga kiritiladi. Masalan, muzey to‘plamiga kiritilgan amaliy san‘at asarlari ham o‘zining avvalgi vazifasini yo‘qotgan va yangi ijtimoiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Xiva “Ichan qal‘a” davlat muzey-qo‘riqxonasida to‘plangan amaliy san‘at asarlari ham o‘z davrining asosiy madaniyatini ko‘rsatuvchi, tarixidan guvohlik beruvchi namunalari hisoblanadi.

Ko‘p asrlar mobaynida xorazmlilar o‘ziga xos milliy madaniyatini yaratib, bu madaniyat moddiy yodgorliklarini keyingi avlodlarga qoldirishga harakat qilganlar. Xiva hukmdori, tarixchi va yozuvchi Abulg‘ozi Bahodirxon (1645– 1663) o‘zining saroyida osori-atika buyumlarni to‘plagan va ularni namoyish qilish uchun maxsus joy ajratgan.

“1920-yilda Xivada o‘tmish va shu davrdagi xalqining madaniyatiga oid barcha narsalarni kelgusi avlodlarga saqlab qolish hamda ko‘rsatish maqsadida “Xalq muzeyi” ni tashkil etishga qaror qilinadi”. Muzey-ko‘rgazma 1920-yil 27-aprelda Butunxorazm xalq vakillari I-qurultoyi qatnashchilarining ishtirokida, Ko‘hna Ark binosi Arzxonasida ochildi. Muzeyning ochilishiga Maorif va madaniyat noziri Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, “Yosh xivaliklar” partiyasi yo‘lboshchisi Mulla Jumaniyoz Sultonmurodovlar o‘zlarining katta hissasini qo‘shdilar.

1969-yilda esa, Xiva “Ichan qal‘a” davlat tarixiy-me‘moriy muzey-qo‘riqxonasi tashkil qilinadi. Muzey-qo‘riqxonasi tashkil qilinishi hamda rivojlanishiga A. Boltayev, Y. Yusupov, M.

Yoqubov, A. Ismagilov, Y. Ro‘zmetov, madaniyat xodimlari T. Sereda, S. Yusupov va N. Sherovlarning hissalariga katta.

Muzeyning eng qadimgi eksponatlari asosan, xon saroyidan olingan qurol-aslahalar, xon devonxonasi hujjatlari – yorlig‘, vaqfnoma, qozixat va noyob qo‘lyozma asarlari sanaladi. “Ichan qal‘a” davlat muzey-qo‘riqxonasining zaxiraxonasida qurol-aslahalar, arxeologik topilmalar, numizmatika kolleksiyasi, esdalik medallari, ko‘krak nishonlari, kulolchilik va koshinpazlik, mis kandakorligi, muhrlar, yog‘och, ganch hamda marmar o‘ymakorligi, zargarlik, chinni buyumlar, gilamlar, cholg‘u asboblari, liboslar, to‘qimachilik buyumlar kolleksiyalari muhim ahamiyatga ega.

“Ichan qal‘a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondi asosiy va ilmiy yordamchi fond buyumlari majmuidan iborat bo‘lib, 2023-yil holatiga ko‘ra, ularning umumiy soni 55796 ta . 2024-yil hisobotlariga ko‘ra, fond bo‘limida jami ashyolar soni 56670 ta . Har yili “Ichan qal‘a” muzey-qo‘riqxonasi muzey fondini boyitish maqsadida ekspeditsiyalar uyushtiriladi, tarixiy va badiiy qiymatga ega eksponatlar sotib olinadi.

Muzeylarda amaliy san‘at asarlarini muzeylashtirish haqida to‘xtalsak, muzeylashtirishning birinchi bosqichi ularni to‘g‘ri aniqlash va to‘liq ro‘yxatga olishdir.

Asarlarni aniqlash va inventarizatsiya qilish. Bu juda muhim qadam bo‘lib, har bir asarning tarixiy va madaniy hamda badiiy ahamiyatini aniqlashga yordam beradi.

Asarlarni tadqiq qilish va tavsiflash. Ilmiy tavsiflash jarayonida kartochnaning mazmuni to‘dirilishi, aniqlashtirilishi va hattoki, o‘zgartirilishi mumkin. Ilmiy tavsiflash ishlari muzey ilmiy xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ilmiy inventarga kiritiladigan barcha o‘zgarishlar, xuddi kirim kitobidagi qoida kabi rasmiylashtiriladi. Asarlarning ilmiy tavsifida fond raqami, inventar raqami, predmet nomi, predmet haqida ma‘lumotlar; nechanchi asrga oidligi, agar ma‘lum bo‘lsa kimning asari, qanday materialdan yasalganligi, shakli, rangi, bezak turlari, muzeyga qachon keltirilganligi, haqida ma‘lumotlar yoziladi. Kim tomonidan olib kelingan, asarning foto surati, o‘lchami, materiali, sotib olingan bo‘lsa narxi ko‘rsatiladi.

Muzey predmetiga aylangan asarlar eksponat sifatida ekspozitsiyalarni shakillantirishda ishlatiladi.

Asarlarni saqlash va konservatsiya qilish. Muzeylardagi muhim masalalardan yana biri konservatsiya, ya‘ni san‘at asarlari, arxeologik materiallar, arxiv hujjatlari va boshqalarni uzoq vaqt yaxshi saqlash tadbiri hisoblanadi. Buning uchun harorat, havoning namligi doimo bir xil, yorug‘lik va ventilyatsiya bir me‘yorda bo‘lishi kerak, chang hamda hashoratlar kirishiga yo‘l qo‘ymaslik shart. Bunday ishlar eksponatlarning fizikaviy, kimyoviy va texnologik xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Saqlash jarayonida asosiy o‘rinni iqlim egallaydi – bu harorat, namlik yoritish va tozalik uyg‘unligidir.

“Ichan qal‘a” davlat muzey-qo‘riqxonasidagi amaliy san‘atga oid ashyolarni saqlash, ayniqsa yog‘och o‘ymakorligi, mis kandakorligi, gilamchilik namunalarini o‘z holicha saqlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, yog‘ochdan ishlangan asarlarni har xil zararkurandalar va yuqori namlikdan saqlash, kandakorlik buyumlarini saqlashda namlik darajasining me‘yoriga e‘tibor qartish juda muhimligi inobatga olinmoqda.

Tarixiy obidalar va eksponatlarni saqlanishini yaxshilash maqsadida “Ichan qal‘a” davlat muzey qo‘riqxonasida Yaponiyaning Kioto universiteti Tarix muzeyi olimlari bilan hamkorlikda muzey fondi, Xiva xonligi tarixi bo‘limi ekspozitsiyasi, Juma masjidi yodgorligiga psixonometrlar qo‘yilib harorat va namlik monitoring qilinmoqda .

Amaliy san‘at asarlari va buyumlarni konservatsiya qilish muzeyshunoslikning muhim sohasi bo‘lib, Italiya, Fransiya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda turli ilg‘or texnologiyalar hamda usullar qo‘llanilmoqda.

Muzey predmetlarini saqlashda konservatsiya va ta‘mirlash (restavratsiya) ham katta ahamiyatga ega. Konservatsiya restavratsiya jarayoni bilan uzviy bog‘liq. San‘at asarlari doimiy nazoratga olingan holda restavratsiya ishlari olib boriladi. Muzey predmetlari tavsifidan kelib chiqqan holda turli usullar orqali restavratsiya ishlari amalga oshiriladi. Biron-bir muzey predmeti restavratsiya qilinadigan bo‘lsa, u ilmiy jihatdan o‘rganilib chiqiladi, umumiy ahvoli tashxislanadi.

Muzey ekspozitsiyasini tashkil etish. Muzeylarda amaliy san'at asarlari ko'rgazmalarini to'g'ri tashkil etish katta ahamiyatga ega. Ekspozitsiya shunday tashkil qilinishi kerakki, tashrifchilar har bir asarning nafaqat estetik go'zalligini, balki uning tarixi va qo'llanilishini ham to'g'ri tushunishlari mumkin bo'lsin. Muzey predmetlari asosida ekspozitsiyalar tashkil qilinadi. Muzey ekspozitsiyasi – bu maqsadga yo'naltirilgan va ilmiy asoslangan muzey eksponatlarining namoyishi bo'lib, ular kompozitsion tashkillashtirilib sharhlar bilan to'ldirilgan, texnik va badiiy jihozlanib, umumiy muzeyning o'ziga xos xususiyatini yaratuvchi ijtimoiy ko'rinishdir.

Muzey ekspozitsiyasidagi predmetlar ilmiy tashkil etilgan majmuani o'zida namoyon etadi, chunki ularni tanlash va joylashtirish muzey jamoasi tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiyaga asoslanadi. Ekspozitsiya muzey kommunikatsiyasi asosini tashkil etadi, bu esa, o'z navbatida, ma'lum bo'shliqda joylashtirilgan ekspozitsion materiallarning tomoshabinlar tomonidan ko'rish, qabul qilish yo'li bilan amalga oshadi. Tomoshabinlarning eksponatlar bilan muloqoti jarayonini yengillashtirish maqsadida, uni yanada samarali va natijali qilish uchun ekspozitsiya yaratishda nafaqat olimlar, balki rassomlar ham qatnashadi.

Ekspozitsiya masalalari muzeylarning asosiy vazifalaridan biridir, chunki u madaniy merosni keng jamoatchilikka yetkazish vositasi hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan ekspozitsiyalar orqali muzeylar tashrifchilarni nafaqat madaniy boyliklar bilan tanishtiradi, balki ularga ta'limiy va estetik ta'sir o'tkazadi, bu esa madaniy merosni asrash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

“Ichan-qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasida bugungi kunda 19 ta doimiy ekspozitsiyalar mavjud bo'lib, ularning fondida Xorazmning qadimdan to hozirgi kungacha bo'lgan boy tarixini aks ettiruvchi 56670 tadan ziyod eksponat mavjud.

Ko'rgazmalar muzey fondlarining ijtimoiy ahamiyatini oshiradi, xususiyl to'plamlardagi yodgorliklarni ilmiy va madaniy qo'llanilishiga imkon beradi, muzeyning madaniy-ta'lim va ekspozitsion uslublarini takomillashtirish ishlarida yordam beradi, uning faoliyati doirasini kengaytiradi.

Hozirgi kundagi ijtimoiy madaniy hayotda katta o'zgarishlar yuz bermoqda, buning natijasida ekspozitsion ishlarga ham yangicha yondashishga talab ko'chaymoqda. Bu esa muzeylarning oldiga o'z ekspozitsiyalarini ifodali va taassurot qoldiradigan qilib yaratish vazifasini qo'ymoqda. Eksponatlarga emotsional ta'sir manbasi sifatida qaralishi, muzey to'plamini namoyish etish tartibini qayta ko'rib chiqish va tubdan o'zgartirishga undaydi. Ekspozitsiyalarni yaratishda eksponatlashtirilayotgan ashyolarni har tomonlama, chuqur o'rganishi lozim. Tayyorlanish texnikasi, materiali, hajmi va boshqa belgilari bo'yicha turlicha bo'lgan predmetlar ekspozitsion namunada bir butun narsadek aks etishi kerak.

“Ichan-qal'a” muzey-qo'riqxonasida zamonaviy ekspozitsiyalarni tashkil etish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, ayrim ekspozitsiyalar reekspozitsiya qilinmoqda hamda yangilari tashkil qilinmoqda. Jumladan, 2023-yilda Muhammad Rahimxon madrasasida “Hukumdor va shoir” ekspozitsiyasi, Toshhovli saroyida esa “Milliy libosimiz – qadriyatimiz bezagi” ko'rgazmasini tashkil etildi.

Bugungi kunda amaliy san'at asrlarini muzeylashtirish masalalari jahonning bir qator rivojlangan davlatlarning muzeylari tajribasiga tayanib amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amaliy san'at asarlarini muzeylashtirish masalalari murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, asarlarni himoya qilish, namoyish etish va keng jamoatchilikka yetkazish bilan bog'liq vazifalarni qamrab oladi.

Muzeylar ekspozitsiyadagi har bir buyumning ahamiyatini yoritish uchun turli xil yorug'lik texnologiyalari, shishali vitrinalar va maxsus jihozlardan foydalaniladi. Masalan, Luvr muzeyi (Fransiya) amaliy san'at buyumlarini yuksak estetik standartlar asosida namoyish qiladi. Bunday buyumlar maxsus shishali qo'riqlor vitrinalarida saqlanadi va zamonaviy muzey dizayni orqali ko'rsatib beriladi. Shuningdek, muzeylarda amaliy san'at asarlarini muzeylashtirish jarayonining yana bir muhim jihati – ta'limiy va targ'ibot ishlaridir. Muzeylar ko'rgazmalar bilan birga tashrifchilarga amaliy san'atning ahamiyatini tushuntirish va hunarmandchilik, amaliy san'at an'alarini asrash bo'yicha turli seminarlar, interaktiv darslar hamda ekskursiyalar o'tkazadi.

Bunda maxsus yo'naltirilgan ekskursiyalar, audiogidlar va virtual reallik texnologiyalari keng qo'llaniladi.

Bugungi kunda zamonaviy muzeylarda amaliy san'at asarlarini raqamlashtirish orqali ularni onlayn platformalar orqali keng jamoatchilikka taqdim etish tendentsiyasi rivojlanmoqda. Interaktiv virtual ko'rgazmalar va 3D modellashtirish texnologiyalari tashrifchilarga amaliy san'at asarlarini bevosita yoki masofadan ko'rish va o'rganish imkoniyatini yaratadi. Masalan, Google Arts & Culture platformasi jahon muzeylaridagi ko'plab amaliy san'at asarlarini raqamlashtirib, ularni onlayn ko'rsatmoqda. Respublikamizning ko'pgina muzeylari ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, amaliy san'at asarlarini saqlash va namoyish qilishda yangicha yondashuvlar ishlab chiqmoqdalar, shuningdek "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasida bu borada amaliy ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda muzey ekspozitsiyalarini yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda, jumladan Zarbxona intereri, "Allomalar tarixi muzeyi", nemis mennonitlari muzeyi, shu asosda tashkil etilgan.

"Oq masjidlik mennonitlar" muzeyi butunlay smart-muzey loyihasi bo'yicha ishlangan bo'lib, undagi har bir ko'rgazma o'zi haqida 3 tilda videoaudio axborot beradi. Ushbu qo'shilgan reallikka asoslangan texnologiya qisman "Madrasa tarixi" ekspozitsiyasida hamda "Zarbxona" intererida ham qo'llanilgan. Muzeydagi ayrim tarixiy shaxslar portretlari – jonli tarzda o'zlari haqida so'zlab beradi.

Muzey faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni qo'llash borasida 6 ta yo'nalishda (aqli axborot tablichkalari, smart otkritkalar jamlanmasi, smart muzey, interaktiv xarita, jonli katalog, virtual muzey, shaharni 3D ko'rinishi) ishlar jadallik bilan olib borilmoqda.

"Ichan-qal'a" davlat muzey qo'riqxonasini jozibadorligini oshirish va keng targ'ib qilish maqsadida khiva360.uz saytida virtual muzey loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, ushbu tizim orqali dunyoning istalgan joyidan turib, muzey-qo'riqxonaga va undagi muzeylar bo'ylab virtual sayohat qilish imkoniyati mavjud.

Muzeyni o'rganish natijasida yutuqlar bilan bi qatorda kamchiliklar ham mavjudligi aniqlandi. Jumladan, fondagi ashyolar soni ko'pchilikni tashkil qilsa-da, ekspozitsiyalarga qo'yilgan eksponatlar soni juda kam. Masalan amaliy san'at ashyolarini taxlil qilsak, asosiy fondga 2879 tani tashkil qiladi, shundan 767 tasi ekspozitsiyalarga qo'yilgan. Yordamchi fondga 532 ta bo'lsa, shundan ekspozitsiyaga 69 tasi qo'yilgan. Muzeylar fondidagi eksponatlarning to'laqonli ekspozitsiyasini tashkil qilishda mablag'lar etishmasligi aniqlandi.

Ekspozitsiyalardagi eksponatlar tez-tez almashtirib turilmaydi. Shuningdek, ularni yangilanib turilmasligi tomoshabinlarni zeriktiradi. Ekspozitsiyalar tez-tez o'zgartirilib turilsa tomoshabinlarning soni yanada oshadi, yangi ekspozitsiyalarni ko'rishga qiziquvchilar ko'payadi.

Bundan tashqari, ekspozitsiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki ekspozitsiyalar va ko'rgazmalarning ayrimlari bugungi kun talablariga javob bermaydi. Bunga ayrim binolarning ekspozitsiyalar namoyishiga moslashmaganligi, zamonaviy jihozlarning yetishmasligi, muzey-qo'riqxonada malakali mutaxassislarning kamligi kabi muammolar sabab bo'lmoqda.

Umuman olganda "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasida bugungi kunda muzeylashtirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Muzey fondi har yili noyob eksponatlar bilan boyitilmoqda, yangi ekspozitsiyalar tashkil qilinmoqda. Tarixiy obidalar ta'mirlanib, mavjud muzeylar reekspozitsiya qilinayapdi. Yangi muzeylar nafaqat shaklan balki mazmunan badiiy jihatdan yangilanmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasida Xorazm amaliy san'ati asarlari muzeyshunoslik prinsiplariga tayangan holda muzeylashtirib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 29.
2. Ismoilova J., Muhamedova M. Zamonaviy jahon muzeyshunosligi. – Toshkent, 2013. – B. 129–130.

3. Kuryazova D. *Muзей ishi asoslari*. – Toshkent: Lesson Press, 2019. – 97 b.
4. Курязова Д. *Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация*. – Тошкент, 2009. – Б. 17.
5. Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад. *Хоразм жадидалиги: ислоҳотлар, таълим ва адабиёт. Монография*. – Урганч: Millenius print, 2024. – Б.51.
6. “Ichan qal’a” davlat muzey-qa’riqxonasi fondining 2003-yil yarim yillik hisoboti.
7. “Ichan qal’a” davlat muzey-qa’riqxonasi fondining 2024-yil yarim yillik hisoboti.
8. Султанова, Г. О. (2023). Образцы чеканки музея-заповедника "Ичан-кальа". *European Journal of Arts*, (1), 75-79.
9. Bobojonov D. “Ichan qal’a” davlat muzey qa’riqxonasi tarixi (1920–2020-yy.). *Birinchi kitob*. – Urganch: MILLENIUMUS PRINT, 2024. – В.118
10. Султанова, Г. О. (2023). “Ичан қалъа” давлат музейининг шаклланиши ва ундаги амалий санъат намуналари. *О‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(16), 307-312._